



## BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KASBIY MADANIYATSHUNOSLIKKA OID KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI

*Komiljonova Mohinur Allabergan qizi*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti*

*E-mail: [mohikomilova@gmail.com](mailto:mohikomilova@gmail.com)*

*<https://orcid.org/0000-0003-3448-4712>*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Ushbu kompetensiya tushunchasi, uning bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy faoliyatidagi ahamiyati yoritilgan. Kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi beshta asosiy mexanizm — o‘quv dasturiga integratsiya, amaliy-loyihaviy, tarbiyaviy-muhit, pedagogik amaliyot va baholash-monitoring mexanizmlari — ularning mazmuni, amalga oshirish shakllari hamda shakllanadigan kompetensiya jihatlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi, bo‘lajak o‘qituvchi, milliy qadriyatlar, madaniy meros, kompetensiyaviy yondashuv, tarbiyaviy muhit, pedagogik amaliyot, madaniyatshunoslik, kasbiy tayyorgarlik, ma’naviy-axloqiy tarbiya.

## МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

**Аннотация:** В данной статье с научно-педагогической точки зрения проанализированы механизмы формирования профессиональной культурологической компетенции будущих учителей. Освещены понятие данной компетенции и её значение в профессиональной деятельности будущего учителя. С научно-практической точки зрения обоснованы пять основных механизмов, способствующих формированию компетенции, — механизм интеграции в учебную программу, практико-проектный, воспитательно-средовой, механизм педагогической практики и механизм оценивания-мониторинга, — их содержание, формы реализации и формируемые аспекты компетенции.

**Ключевые слова:** профессиональная культурологическая компетенция, будущий учитель, национальные ценности, культурное наследие, компетентностный подход, воспитательная среда, педагогическая практика, культурология, профессиональная подготовка, духовно-нравственное воспитание.

## MECHANISMS FOR FORMING THE PROFESSIONAL CULTUROLOGICAL COMPETENCE OF PROSPECTIVE TEACHERS

**Abstract:** This article provides a scientific and pedagogical analysis of the mechanisms for forming the professional culturological competence of prospective teachers. The concept of this competence and its significance in the professional activity of a prospective teacher are examined. Five main mechanisms contributing to the formation of the competence — curriculum integration, practical-project, educational-environmental, pedagogical practicum, and assessment-monitoring mechanisms — along with their content, forms of implementation, and the aspects of competence they develop, are substantiated from a scientific and practical perspective.

**Keywords:** professional culturological competence, prospective teacher, national values, cultural heritage, competence-based approach, educational environment, pedagogical practicum, culturology, professional training, spiritual and moral education.

**Kirish.** Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki milliy va umumbashariy madaniy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazuvchi, ular ongida madaniyatga nisbatan hurmat va ongli munosabatni shakllantiruvchi “madaniyat vositachisi” sifatida ham faoliyat yuritadi [1]. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy madaniyatshunoslikka oid kompetensiyani — milliy va jahon madaniyati tarixi, qadriyatlar tizimi va madaniy meros haqidagi bilimni hamda ularni pedagogik faoliyatda amaliy qo‘llash qobiliyatini — shakllantirish oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Globallashuv jarayonlarining kuchayishi, turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va integratsiyasi sharoitida bo‘lajak o‘qituvchining milliy o‘ziga xoslikni saqlagan holda, boshqa madaniyatlarga ham hurmat bilan qarash, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lishi alohida ahamiyat kasb etadi [2]. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, oliy pedagogik ta’lim tizimida ushbu kompetensiyani maqsadli va tizimli shakllantirishga qaratilgan aniq mexanizmlar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Shu nuqtai nazardan, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini shakllantirishning aniq, amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan mexanizmlarini ilmiy jihatdan tizimli tahlil qilish va asoslash mazkur maqolaning dolzarbligini belgilaydi [3].

Tadqiqot predmeti. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini shakllantirishning mexanizmlari, ularning mazmuni, amalga oshirish shakllari hamda shakllanadigan kompetensiya jihatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Muammoning o‘rganilgan darajasi. Ta’limga madaniyatshunoslik (kulturologik) yondashuv nazariyasi E.V. Bondarevskaya [1]ning fundamental tadqiqotlarida chuqur ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ta’lim jarayonini shaxsni madaniyatga kirituvchi, uning madaniy o‘zligini shakllantiruvchi jarayon sifatida tushunish tamoyillari asoslangan. Madaniyatshunoslikning umumnazariy asoslari va milliy qadriyatlar tizimi mahalliy tadqiqotchilarning ishlarida [2] batafsil yoritilgan.

Bo‘lajak pedagoglarni ma’naviy-axloqiy va madaniy jihatdan tayyorlash masalalari F. Yo‘ldoshev [3], N. Saidahmedov [4] kabi mahalliy olimlarning ishlarida yoritilgan bo‘lib, ularda milliy tarbiya va umumkasbiy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirishning umumpedagogik tamoyillari asoslangan. Kompetensiyaviy yondashuvning umumnazariy asoslari esa Z. Tolipov [5]ning ishlarida chuqur tahlil qilingan.

Shunga qaramay, olib borilgan ilmiy izlanishlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bo‘lajak o‘qituvchilarda aynan kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi aniq, tizimli mexanizmlarni (o‘quv-dasturiy, amaliy-loyihaviy, tarbiyaviy, amaliyot va baholash darajasida) kompleks tarzda tahlil qiluvchi maxsus tadqiqotlar mahalliy pedagogika fanida hali yetarli darajada mavjud emas. Ushbu bo‘shliqni to‘ldirish mazkur tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilaydi.

**Muhokama.** Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasi tushunchasini tahlil qilishda, uni bo‘lajak o‘qituvchining milliy va jahon madaniyati tarixi, qadriyatlar tizimi, madaniy meros haqidagi bilimlarini hamda ularni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda amaliy qo‘llay olish qobiliyatini o‘zida mujassam etuvchi kasbiy-shaxsiy sifat sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir [1]. E.V. Bondarevskayaning madaniyatshunoslik yondashuviga ko‘ra, ta’lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biri shaxsni ma’lum bir madaniyatga “kiritish”, unda madaniy o‘zlik va boshqa madaniyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishdan iborat bo‘lishi lozim.

O‘quv dasturiga integratsiya mexanizmi ushbu kompetensiyani shakllantirishning nazariy-bilimga oid asosini tashkil etadi [2]. Bu mexanizm orqali bo‘lajak o‘qituvchi milliy va jahon madaniyati tarixi, qadriyatlar tizimi, madaniy-tarixiy jarayonlar haqida tizimli bilim oladi. Biroq faqat nazariy bilim berish o‘zi yetarli emas — bu bilim real madaniy hodisalar bilan bevosita bog‘lanishi kerak. Aynan shu vazifani amaliy-loyihaviy mexanizm bajaradi, u orqali talaba muzey, tarixiy-me’moriy yodgorliklarga o‘quv ekskursiyalari uyushtiradi, madaniy meros bo‘yicha mustaqil tadqiqot loyihalarini bajaradi, bu esa uning madaniy qadriyatlarga nisbatan amaliy, hissiy-shaxsiy munosabatini shakllantiradi.

Tarbiyaviy-muhitii mexanizm talabani milliy va umumbashariy madaniy qadriyatlarni anglash va ularga rioya qilishga undovchi umumiy tarbiyaviy muhitni yaratishga qaratilgan [3]. Bu mexanizm milliy bayramlar, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, talabalar ijodiy-badiiy jamoalari faoliyati orqali amalga oshiriladi va talabada madaniy qadriyatlarga hurmat, milliy-fuqarolik o‘zligini anglash tuyg‘usini mustahkamlaydi. Pedagogik amaliyot mexanizmi esa bo‘lajak o‘qituvchida ilgari shakllangan madaniyatshunoslik bilimni o‘quvchilarga uzatish metodikasini amaliy sinash imkonini beradi — talaba maktabda madaniy-ma’rifiy darsdan tashqari tadbirlarni mustaqil tashkil etish va o‘tkazish orqali nazariy bilimni kasbiy-metodik ko‘nikmaga aylantiradi.

Nihoyat, baholash-monitoring mexanizmi kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining shakllanish darajasini muntazam kuzatish va baholash imkonini beradi [4]. Bu mexanizm madaniy-bilimga oid test va topshiriqlar, portfolio, reflektiv esse va hisobotlar orqali amalga oshiriladi, bu esa talabada o‘z bilim va munosabatini tanqidiy

baholash hamda uni izchil takomillashtirish ko‘nikmasini shakllantiradi. Ushbu beshta mexanizm bir-biridan ajralgan holda emas, balki izchil, bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qo‘llanilganda eng yuqori pedagogik samarani beradi — nazariy bilim amaliy tajriba bilan, amaliy tajriba esa tarbiyaviy muhit va pedagogik amaliyot bilan mustahkamlanadi, natijani esa doimiy monitoring orqali nazorat qilib boriladi [5].

**Natijalar.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiluvchi beshta asosiy mexanizmni tahlil qilish jarayonida ularning mazmuni, amalga oshirish shakli hamda shakllanadigan kompetensiya jihatlari tizimlashtirildi. Tahlil natijalari quyidagi jadvalda umumlashtirilgan holda keltirilgan:

1-jadval

| <b>№</b> | <b>Shakllantirish mexanizmi</b>        | <b>Mazmuni</b>                                                                                                                 | <b>Amalga oshirish shakli</b>                                                                                    | <b>Shakllanadigan kompetensiya jihati</b>                                                        |
|----------|----------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1        | O‘quv dasturiga integratsiya mexanizmi | Madaniyatshunoslikka oid nazariy bilimlarni (milliy va jahon madaniyati tarixi, qadriyatlar tizimi) o‘quv dasturiga kiritish   | Milliy va jahon madaniyati asoslari fani, boshqa fanlar tarkibida madaniy-tarixiy mavzularni yoritish            | Madaniy hodisalarni nazariy jihatdan tushunish va tizimli bilim asosi                            |
| 2        | Amaliy-loyihaviy mexanizm              | Nazariy bilimni real madaniy meros ob'ektlari va an'analar bilan bevosita bog‘lash                                             | Muzey, tarixiy-me‘moriy yodgorliklarga o‘quv ekskursiyalari, madaniy meros bo‘yicha mustaqil tadqiqot loyihalari | Madaniy meros va qadriyatlarga nisbatan amaliy, hissiy-shaxsiy munosabatning shakllanishi        |
| 3        | Tarbiyaviy-muhitii mexanizm            | Talabalarni milliy va umumbashariy madaniy qadriyatlarni anglash va ularga rioya qilishga undovchi tarbiyaviy muhitni yaratish | Milliy bayramlar, madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, talabalar ijodiy-badiiy jamoalari faoliyati                        | Madaniy qadriyatlarga hurmat va milliy-fuqarolik o‘zligini anglash tuyg‘usining mustahkamlanishi |
| 4        | Pedagogik amaliyot mexanizmi           | Bo‘lajak o‘qituvchida madaniyatshunoslik bilimini o‘quvchilarga uzatish metodikasini amaliy sinash                             | Maktabda madaniy-ma‘rifiy darsdan tashqari tadbirlarni mustaqil tashkil etish va o‘tkazish                       | Madaniy qadriyatlarni o‘quvchilarga o‘rgatishning aniq metodik ko‘nikmalari                      |
| 5        | Baholash-monitoring mexanizmi          | Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining shakllanish darajasini muntazam kuzatish va baholash                              | Madaniy-bilimga oid test va topshiriqlar, portfolio, reflektiv esse va hisobotlar                                | O‘z bilim va munosabatini tanqidiy baholash hamda uni izchil takomillashtirish ko‘nikmasi        |

1-jadvalda keltirilgan tahlildan ko‘rinib turibdiki, kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasining turli jihatlarini shakllantirish uchun turli mexanizmlar ixtisoslashgan

tarzda xizmat qiladi — o‘quv dasturiga integratsiya mexanizmi ko‘proq bilim komponentini, amaliy-loyihaviy va tarbiyaviy-muhitii mexanizmlar hissiy-qadriyatli komponentni, pedagogik amaliyot mexanizmi esa kasbiy-metodik komponentni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, baholash-monitoring mexanizmi boshqa barcha mexanizmlarning samaradorligini nazorat qiluvchi va ularga fikr-mulohaza beruvchi “kesishuvchi” mexanizm hisoblanadi, shu sababli uni alohida ahamiyat bilan tashkil etish zarur. Umuman olganda, ishlab chiqilgan mexanizmlar tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini izchil, kompleks va samarali shakllantirish uchun amaliy jihatdan qo‘llash mumkin bo‘lgan asos bo‘la olishini ko‘rsatdi.

### **Xulosa**

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy madaniyatshunoslikka oid kompetensiyasini shakllantirish murakkab, ko‘p qirrali pedagogik jarayon bo‘lib, u nazariy bilim berishdan tortib amaliy-tarbiyaviy faoliyat va monitoringgacha bo‘lgan beshta o‘zaro bog‘liq mexanizm orqali amalga oshirilishi lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quv dasturiga integratsiya, amaliy-loyihaviy, tarbiyaviy-muhitii, pedagogik amaliyot va baholash-monitoring mexanizmlarining har biri ushbu kompetensiyaning ma’lum bir jihatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu mexanizmlarni izchil, bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida qo‘llash bo‘lajak o‘qituvchilarda milliy va umumbashariy madaniy qadriyatlarni chuqur anglagan, ularni o‘quvchilarga samarali yetkaza oladigan kasbiy-madaniy salohiyatni shakllantirishning eng samarali yo‘li hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu mexanizmlarning turli pedagogik yo‘nalish talabalariga xos xususiyatlarini, shuningdek raqamli vositalar (virtual muzey turlari, onlayn madaniy loyihalar)ning ushbu mexanizmlar doirasidagi qo‘shimcha imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Бондаревская Е.В. Теория и практика личностно-ориентированного образования. – Ростов-на-Дону: Изд-во РГПУ, 2000. – 352 с.
2. Karimov B. Madaniyatshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 224 b.
3. Yo‘ldoshev J.G‘. Ta’lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 216 b.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. – 172 b.
5. Tolipov Z.T. Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini takomillashtirish. – Toshkent: Fan, 2013. – 184 b.
6. Библер В.С. От наукоучения – к логике культуры. – М.: Политиздат, 1991. – 413 с.
7. Ochilova M. Boshlang‘ich ta’limda ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 152 b.